
ILG'OR TERIMCHILARGA SOVG'A TOPSHIRILDI

Tumanimizda paxta yig'im-terimi uyushqoqlik va jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Milliy boyligimiz bo'lgan oq oltinni quyoshli kunlarda yig'ishtirib olish uchun bugungi kunda har bir kishi o'zini paxta maydonida bo'lishi kerakligini chuqur anglagan holda mashaqqatlar evaziga yetishtirilgan hosilni yig'ib-terib olishda yaqindan yordam bermoqda. Qalb amri bilan paxta dalasiga chiqqan terimchilar ham oilasi, ham shu yurt uchun o'zlarining ulkan hissalarini qo'shishmoqda.

Ana shunday faol terimchilardan iborat bo'lgan mahalla fuqarolar yig'inlaridan kelgan fuqarolar yig'im-terimda barchaga namuna bo'lishmoqda. Ularning har biri kuniga 130-150 kilogrammdan paxta terishib, terim sur'atini oshirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shishmoqda. Dalalarda jasorat ko'rsatib, davlatimiz xirmonining yuksalishida o'zlarining munosib ulushlarini qo'shayotgan hashar-chilar holidan xabar olish, eng terimchilarni munosib taqdirlash maqsadida Rishton tumaniga mas'ul etib birlashtirilgan viloyat hokimi o'rinbosari, Oila va xotin qizlar boshqarmasi boshlig'i K. Kavlonova, Rishton tuman bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaevalar tumandagi paxtazorlarga tashrif uyushtirmoqda.

“Qayrag'och qaldirg'ochi” va “Sobirjon Ergashev yerlari” fermer xo'jaligining paxtazorida bo'lib o'tgan targ'ibot tadbiri ham barchaga manzur bo'ldi. Tadbirda so'z olgan viloyat hokimi o'rinbosari, Oila va xotin qizlar boshqarmasi boshlig'i K. Kavlonova oq oltinimizning jahon miqyosidagi ahamiyati hamda xalq farovonligi uchun zamin ekanligi haqida aytib o'tdi. Shundan so'ng bir guruh ilg'or terimchilar esdalik sovg'alari bilan mukofotlandi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-09-13 14:53:52